ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

YANGI AVLOD HIMOYA KIYIMLARINING EKOLOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI

Valiyev Gulam Nabidjanovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Yengil sanoat muhandisligi” kafedrasi professori
gulam.valiyev@fstu.uz,
Abdumitalova Muqaddasxon Ro‘zimat qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti
M43-25 magistr talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy sanoat korxonalarida inson mehnatini himoya qilish bilan bir qatorda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, ekologik xavfsiz maxsus kiyimlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Yangi avlod himoya kiyimlari nafaqat mexanik va issiqlik xavfidan himoyalaydi, balki qayta ishlanadigan materiallardan tayyorlanishi, past uglerod iziga ega ishlab chiqarish texnologiyalari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada himoya kiyimlarining ekologik talablarga mosligi, ularning texnologik takomillashuvi, biomateriallar asosidagi innovatsiyalar, ergonomika va energiya samaradorligi jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Himoya kiyimlari, ekologik to‘qimachilik, qayta ishlanadigan materiallar, aqlli kiyim, biomateriallar, mehnat xavfsizligi, texnologik innovatsiya, nanomaterial, atrof-muhit, uglerod izi, ISO 14001, tahlil, ergonomika, energiya tejamkorlik, ekologik standartlar.

Abstract: In modern industrial enterprises, there is a growing demand for protective clothing that not only ensures worker safety but also meets environmental sustainability standards. The new generation of protective garments is distinguished by the use of recyclable materials and low-carbon manufacturing technologies. This article explores the development of eco-friendly textiles, the integration of biomaterials, smart sensor systems, energy-efficient production methods, and ergonomic design principles. The study analyzes the performance efficiency of advanced eco-technological protective clothing, its impact on environmental preservation, and its contribution to occupational safety and sustainable industrial growth.

Keywords: Protective clothing, eco-textiles, recycled materials, smart sensors, biomaterials, nanotechnology, occupational safety, carbon footprint, ergonomics, energy efficiency, industrial ecology, protective layers.

Аннотация: В современных промышленных предприятиях растёт потребность в защитной одежде, которая не только обеспечивает безопасность труда, но и соответствует экологическим требованиям. Новое поколение защитных костюмов отличается использованием перерабатываемых материалов и технологий с низким углеродным следом. В статье рассмотрены вопросы экологического текстиля, применения биоматериалов, интеллектуальных сенсорных систем, энергосберегающих технологий и эргономического дизайна. Особое внимание уделено анализу эффективности экологически безопасных и технологически усовершенствованных средств индивидуальной защиты, их влиянию на производственные показатели, состояние окружающей среды и безопасность работников.

Ключевые слова: Защитная одежда, экологичный текстиль, переработанные материалы, интеллектуальные сенсоры, биоматериалы, нанотехнологии, охрана труда,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

углеродный след, эргономика, энергоэффективность, промышленная экология, защитные слои.

Ushbu maqolada yangi avlod himoya kiyimlari ishlab chiqarish sanoatida ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan yondashuvning natijalari haqida ish olib borganligi yuzasidan fikir yuritilgan. Shunga ko‘ra so‘nggi yillarda sanoat korxonalari inson salomatligini saqlash bilan birga tabiatga ta’sirni kamaytiruvchi yechimlarga o‘tmoqda. Bunda himoya kiyimlarining tarkibida qayta ishlanadigan to‘qimalar, tabiiy tolalar va nanoteknologiyalar asosidagi materiallardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, texnologik yangiliklar — masalan, o‘z haroratini boshqaruvchi, toksik moddalarni filtrlovchi yoki biomonitoring funksiyasiga ega kiyimlar ishlab chiqilmoqda.

Avtomobilsozlik sanoatida hodimlar uchun mo‘ljallangan maxsus kiyimlar xavfsizlikni ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mehnat jarayonida yuzaga keladigan xavf omillarini kamaytirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday kiyimlar nafaqat texnik himoya vositasi, balki korxona standartlari, brendingi va ishlab chiqarish madaniyatining ajralmas qismidir. Maxsus kiyimlarni ilmiy asosda loyihalash jarayoni ularning funksional, gigiyenik, ergonomik va estetik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Avtomobilsozlikdagi texnologik jarayonlar yuqori harorat, kimyoviy moddalar, metall parchalarining uchishi, mexanik zarbalar, shovqin va chang bilan bog‘liq bo‘lgani sababli kiyimlar materiallarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari alohida e’tibor bilan tanlanadi. Shuningdek, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi, robototexnika qismlarining mavjudligi va ichki logistik harakatlarning jadalligi maxsus kiyimdan yanada yuqori himoya darajasini talab qiladi[1].

Maxsus kiyim tizimli ravishda bir nechta funksional qatlamlardan iborat bo‘ladi: tashqi himoya qatlami, issiqlikni saqlovchi yoki teskari ravishda ventilyatsiyani ta’minlovchi qatlamlar, shuningdek, ishchining harakatlanishiga moslashgan ergonomik kesim. Material tanlashda polikoton, aramid tolalari, neylon, poliester va ularning aralashmalariga ustuvorlik beriladi. Aramid tolali materiallar yuqori mustahkamlik va yong‘inga chidamlilik bilan ajralib turadi, ammo ularning tannarxi yuqori. Polikoton matolar esa havo o‘tkazuvchanligi, terini tirnash xususiyati yetishmasligi va narxning nisbiy pastligi sababli keng qo‘llaniladi. Avtomobil yig‘ish sexlarida, ayniqsa, mexanik ta’sir kuchaygan hududlarda yengil, ammo zich tolali matolardan foydalanish tavsiya etiladi[2].

Maxsus kiyimlarning muhim elementlaridan biri – ko‘rinuvchanlik. Sex ichida doimiy ravishda harakatlanayotgan yuk ko‘taruvchi aravachalar, robot manipulyatorlari, konveyer tizimlari mavjud bo‘lgani uchun hodimlar kiyimlarida reflektorli yo‘lakchalar, yorqin rangli elementlar va tunda ko‘rinishni ta’minlovchi signalli chiziqlar bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, kiyimlarning tikuv texnologiyasi ham muhim: ikki qatlamli mustahkam tikuv, yonuvchanlikka qarshi maxsus iplar hamda joylashuv bo‘yicha qulaylikni ta’minlaydigan kesimlar ishlatiladi. Bunday yondashuv xavfsizlikning xalqaro ISO 20471, ISO 11612 va ILO talablari asosida shakllanadi[2].

Kiyimning ergonomik tahlili asosiy bosqichlardan biri bo‘lib, bunda ishchining tana harakati, bukilish burchaklari, yuqoriga qo‘l ko‘tarishi, o‘tirish-turish jarayonidagi biomekanik holatlar o‘rganiladi. Ayniqsa, avtomobil yig‘ish liniyalarida tor joylarda ishlash zarurati mavjud bo‘lgani uchun ergonomika muhim. Bu jihatlar maxsus kiyim shaklini oldindan konstruktsiyalashda hisobga olinadi. Masalan, tirsak, tizza va yelka qismlariga qo‘shimcha elastik qo‘shimchalar qo‘shilishi ishchini charchatmaydi va jarohatlanish ehtimolini kamaytiradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

1-jadval

Avtomobilsozlikda qo‘llaniladigan maxsus kiyim materiallariga qo‘yiladigan talablar

Material turi	**Mustahkamlik**	**Issiqlikka chidamlilik**	**Havo o‘tkazuvchanlik**	**Kimyoviy moddalarga qarshilik**	**Umumiy baho**
Polikoton	O‘rtacha	Past	Yuqori	Past	O‘rtacha
Aramid tolali mato	Juda yuqori	Juda yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori
Poliester	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori
Neilon	O‘rtacha	Past	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha

Energiya tejamkorligi va ekologik talablarga javob beruvchi korxonalarda qayta ishlangan tolalardan tayyorlangan maxsus kiyimlar ham keng joriy etilmoqda. Bunda ishlab chiqarish chiqindilaridan olingan sintetik tolalar qayta eritilib ip shakliga keltiriladi va zamonaviy to‘qimachilik texnologiyalari orqali kiyim matosiga aylantiriladi. Bu jarayon korxonaning ekologik barqarorlik siyosatini kuchaytiradi va xalqaro sertifikat olishga imkon yaratadi[3].

Kiyimlarga qo‘yiladigon gigiyenik ko‘rsatkichlar ham alohida e’tibor talab qiladi. Avtomobil yig‘ish bo‘limlarida xonalar odatda mexanik ventilyatsiya bilan jihozlangan bo‘lsa-da, ishchi tanasi faol harakatda bo‘lganligi sababli kiyimning havo almashinuvi yuqori bo‘lishi kerak. Shuningdek, kiyim ichki qismi terini tirnash xususiyatini keltirib chiqarmaydigan, antiallergen qoplama bilan ishlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Terini quruq saqlash, ortiqcha namlikni chiqarish va hid hosil bo‘lishini kamaytirish zamonaviy nanoto‘qimalar yordamida amalga oshirilmoqda[4].

Avtomobilsozlikdagi ish jarayonlarida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kimyoviy moddalar – moylar, yoqilg‘i qoldiqlari, texnik suyuqliklar va korroziyaga qarshi ishlov beruvchi reagentlar maxsus kiyimga sirti suyuqlik o‘tkazmaydigan qoplama berishni talab qiladi. Bu uchun poliuretan, akril yoki fluoropolimer asosidagi qoplamalar ishlatiladi. Ular matoning nafas olishini to‘xtatmaydi, ammo uning suyuqlik o‘tkazuvchanligini kamaytiradi. Xalqaro standartlar tadqiqiga ko‘ra, maxsus kiyimni ishlab chiqarishda texnologik jarayon uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: materiallarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini laboratoriya sharoitida tekshirish; ergonomik modellash va kompyuter dasturlari yordamida virtual kiyim konstruktsiyasini yaratish; tayyor modelni ishlab chiqarish sexlarida sinovdan o‘tkazish. Shu yondashuv, bir tomondan, kiyimning himoya funksiyasini amalda tekshirishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi. Amaliy tajriba ko‘rsatishicha, yelka va tizza qismlariga qo‘shimcha mustahkamlovchi qatlam qo‘shish kiyimning xizmat muddatini 30–40% ga oshiradi. Shuningdek, maxsus kiyimlarni raqamlashtirish va “aqlli kiyim” texnologiyalaridan foydalanish tendensiyasi ham avtomobilsozlikda sezilmoqda. Sensorli modullar yordamida ishchining tana harorati, zarba yuklamasi, ortiqcha charchoq holati yoki xavfli zonaga kirishi aniqlanishi mumkin. Bunday tizimlar ishlab chiqarish xavfsizligini sezilarli oshiradi va potentsial jarohatlarning oldini olishga yordam beradi[5].

Umuman olganda, avtomobilsozlik xodimlarining maxsus kiyimlarini loyihalash va tahlil qilish nafaqat texnologik, balki antropometrik, gigiyenik va estetik tamoyillar kompleksini qamrab oladi. Kiyimning har bir unsuri – mato tarkibi, tikuv texnologiyasi, ergonomik shakli, havfsizlik

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

elementlari va qo‘shimcha himoya qatlamlari ilmiy asosga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu esa ishlab chiqarish jarayonining xavfsizligi va samaradorligini yuqori darajada ta’minlaydi[6].

Shunday ekan yangi avlod himoya kiyimlari inson salomatligini himoya qilish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlanadigan, biologik parchalanadigan va energiya tejamkor materiallardan tayyorlangan kiyimlar ishlab chiqarish jarayonida chiqindilar miqdorini kamaytiradi va uglerod izini sezilarli darajada qisqartiradi. Aqlli sensor tizimlari esa texnik xavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqib, ishchilarning real vaqt rejimidagi fiziologik holatini nazorat qilish imkonini beradi. Shunday qilib, ekologik va texnologik jihatdan takomillashgan himoya kiyimlari kelajak sanoatining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat mehnat xavfsizligini, balki global ekologik muvozanatni saqlashga ham hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women’s clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men’s clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).

[7]. Валиев Г. Н. К вопросу параметров намотки мотальной паковки и теоретических зависимостей их определения // Современные технологии и оборудование текстильной промышленности (Текстиль-2012): тезисы докладов Международной научно-технической конференции (Москва, 13-14 ноября 2012 г.). Часть 1. – М.: ФГБОУ ВПО «МГТУ им. Косыгина», 2012. – 140 с., с. 53-54.

[8]. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Способ определения технологичности нитенатяжных приборов текстильных машин // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2018): сборник материалов XXI международного научно-практического форума (Иваново, 26-28 сентября 2018 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2018. – Часть 1, 303 с., с. 185-188.

[9]. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Исследование влияния скорости снования на форму баллона нити натурального шёлка // Международная научная конференция посвященная 110-летию со дня рождения профессора А.Г.Севостьянова: сборник научных трудов международной научной конференции посвященной 110-летию со дня рождения профессора А.Г.Севостьянова (Москва, 10 марта 2020 г.). Часть 2. – М.: РГУ им. Косыгина, 2020. – 302 с., с. 195-199.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-11

[10] Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 11-16.

[11] Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 204-209.

[12] Isroilova N. ANALYTICAL STUDY AND FORMATION OF THE ASSORTMENT OF WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – Т. 3. – №. 6. – С. 445-451.

[13] Isroilova N. RESEARCH ON THE PRODUCTION OF MEDICAL SUITS BASED ON FLAX FIBER FABRICS //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – Т. 3. – №. 6. – С. 405-409.

[14] 1. Nozimjonovna, O. I. (2022). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF MODERN CIRCULAR NEEDLE KNITTING MACHINES. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(06), 75-79.